

Isroil davlatining elchisi TIQXMMIga tashrif buyurdi

Davlatlararo hamkorlikning natijasi o'zaro manfaat asosidagi taraqqiyotga yo'naltirilgani bilan ahamiyatlidir. Innovatsion va investitsion faoliyat ham ana shu maqsad zaminiga qurilgani bilan xarakterlanadi. Isroil davlatining O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Zeavit Ben Xillelning Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutiga tashrifi ham xuddi shu ma'noda katta mohiyat kasb etdi. TIQXMMI rektori, iqtisod fanlari doktori, professor Umurzakov O'ktam Pardaevich bilan elchining muloqoti samimiy tarzda, o'zaro hamkorlik va tajribalarini almashish yo'sinida, do'stona ruhda o'tdi.



Institut rektori dastavval, tashrif uchun elchi janoblariga o'z minnatdorchiligini bildirib ta'lim muassasamizda olib borilayotgan xalqaro faoliyat haqida ma'lumot berdi. So'ngra institut hayoti va qizg'in tarzdagi ish va o'quv jarayoni, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan auditoriya va laboratoriyalar, xorijlik talabalarning mamnunligi aks etgan videorolik namoyish etildi. Keyin elchi janoblari Zeavit Ben Xillelga mamnuniyat bilan so'z berildi. Elchi TIQXMMIga tashrif va keng ravishda tanishish ish rejasidagi birinchi maqsadlaridan biri bo'lganini, xursandchiligini ta'kidladi. Suv, sug'orish muammosi, tomchilab sug'orishning o'ziga xos masalalari jahonshumul ahamiyat kasb etganini ta'kidlab, buning uchun o'zaro maslahatlashish va hamkorlik yo'lida orttirilgan tajribalar muhim ekanini e'tirof etdi.



Isroil NETAFIM kompaniyasining suv tejoychi texnologiyalarini jalb qilgan holda institut hududida namoyish maydonchasini yaratish imkoniyatlarini muhokama etish uchrashuvdan ko'zlangan asosiy maqsad bo'ldi. Muloqot yakunida elchi janoblariga va birga tashrif buyurgan xodimlarga minnatdorchilik bildirildi hamda esdalik sovg'alari taqdim etildi. Ular faxriy mehmonlarning istaklari muhrlanadigan albomga o'z tilaklarini yozib qoldirishdi.



TIQXMMI matbuot xizmati